

THE ROLE OF MEDICINAL PLANTS IN NATURE AND HUMAN LIFE

Abdukhalilova Madinakhon

Andijan State Pedagogical Institute, Second Stage Student of Biology

E-mail: madinaxonabduxalilova@mail.ru

Abstract:

The article contains important information about the role of medicinal plants, which are considered to be the most important representatives of the plant world, in nature and human life.

Keywords:

Cholisterin, radionuclide, herpes, hypertension, pleurisy, pneumonia, oncological.

Introduction

So'nggi yillarda o'simliklardan olinadigan dorivor vositalarining ommaviylashuvi tufayli mamlakatimizning barcha hududlaridan yig'ilgan yovvoyi dorivor, oziq-ovqat va bazi sanoat o'simliklarining xom ashyosiga talabning sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Shu bilan birga 1997 yil 26 dekabrda qabul qilingan "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 20 oktyabrdagi 290-sonli «Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida»gi qarori asosida tabiatni muhofaza qilish, xususan, yovvoyi dorivor, oziq-ovqat va sanoat o'simliklari bo'yicha ko'plab tadbirlar ishlab chiqilgan. Mahalliy farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan dori-darmonlar turlarini kengaytirish, yovvoyi o'simliklarni tizimli yetishtirish va yig'ish, ularni tayyorlash va qayta ishlashni tashkil etish, shirinmiyani xom ashyo sifatida eksport qilishdan manfaatdor bo'lgan xo'jalik yurituvchi subektlar uchun qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, tadbirkorlik subektlarining faoliyatining tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada erkinlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'simlik dunyosi obektlaridan foydalanishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" (2015 yil 30 sentyabrdagi 278-son) qarorini ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Shuningdek, dorivor o'simliklar asosida farmatsevtika, farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida, o'simlik xom ashyosi asosida substansiyalar ishlab chiqarishni tashkil qilishni ko'zda tutadigan maqsadli dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 29 maydagi 142-sonli "2015-2017 yillarda Surxondaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida" qarori bilan tasdiqlangan.[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 fevraldagi "Farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3532-sonli qarori bilan respublikada farmatsevtika sanoatini davlat boshqaruvi tizimi qayta ko'rib chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Bundan tashqari, farmatsevtika sohasining jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida "Yo'l xaritasi" qabul qilinib,

=====

iqlim sharoiti, yerning xususiyatlari va boshqalarni hisobga olgan holda dori vositalari uchun xom ashyoni yetishtirish uchun qulay sharoitga ega bo'lgan hududlarning hammabop xaritalarini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi hududlar kesimida turli tuproq-iqlim sharoitida yetishtirish tavsiya etilgan dorivor o'simliklar ro'yxatini tasdiqlash, asosiy maqsadi yangi dorivor vositalar va dori shakllarini yaratishning kompleks yondashuvini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun farmatsevtika sanoati uchun yangi texnologiyalar va mahsulotlarni yaratish dasturini ishlab chiqish, substansiya, djenerik va tibbiyot vositalarini olish texnologiyalarini ishlab chiqish, zarur o'zgartirishlar kiritish maqsadida farmatsevtika sohasida yangi texnologiyalar va mahsulotlarni yaratish dasturi doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishni doimiy ravishda nazorat qilish va xom ashyo eksportini ichki farmatsevtika sanoatida ishlab chiqarishga yo'naltirish orqali asta-sekin pasaytirish kabilar ko'zda tutilgan.[1].

Bundan tashqari, ushbu sohaning dolzarbligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi «O'zbekiston Respublikasida an'anaviy tibbiyotni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4668-sonli va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi «Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4670-sonli qarorlari bilan ta'kidlangan. [1,2].

Bugungi kunda dorivor o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati, o'simliklarning dorivor vosita sifatida qo'llanilish tarixi, insoniyat tarixiga teng va u bilan chambarchas bog'langan. Ulardan olinadigan preparatlarga tibbiyotda kelajakda talabni yanada oshirishga asosiy sabablardan biri, sintez yo'li bilan olingan har bir kimyoviy dorivor preparatni uzoq vaqt uzluksiz ravishda iste'mol qilish, inson va hayvonlar organizmida turli ko'ngilsiz o'zgarishlarga olib kelishidir. Shunga ko'ra butun dunyoda o'simlik dorivor preparatlariga-fitopreparatlarga va dorivor o'simliklarga ehtiyoj ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida dorivor o'simliklar ahamiyatini yanada oshishi, yangi ilmiy izlanishlar olib borib, dorivor o'simliklarni izlab topishga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda ishlatiladigan va ishlatilishi mumkin asosan O'zbekiston hududlarida yovvoyi holda o'sadigan, ekib o'stiriladigan, qolaversa ekib o'stirilishi mumkin bo'lgan o'simliklar borligi albatta quvonarli holdir. Dorivor o'simliklarni ishlatilishida qadimgi va hozirgi zamon simliklar haqidagi turkum adabiyotlaridan olingan ma'lumotlar orasidan ilmiy adabiyotda ma'lum darajada tasdiq topgan o'simlik mahsulotlaridan ko'proq davolash uchun tavsiya qilish muhimdir.[2].

O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qariyb 40—47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi. O'simliklar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo'lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tuganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (urug'i), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan dori darmon tarzda foydalaniladi.[3].



Dorivor o'simliklar

Dorivor o'simliklarning ta'sir etuvchi moddasi - alkaloidlar, turli glikozidlar (antroglikozidlar, yurakka ta'sir etuvchi glikozidlar, saponinlar va b.), flavonoidlar, kumarinlar, oshlovchi va boshqa shilliq moddalar. Efir moylari, vitaminlar, smolalar va boshqa birikmalar bo'lishi mumkin. Ko'p o'simliklardan mikroorganizm va viruslarni yo'qotadigan antibiotiklar va fiionsidlariga boy preparatlar tayyorlanadi. Odatda bir guruhga xos o'zaro yaqin kimyoviy birikmalar bir oila yoki turkumga mansublarda uchraydi, shu bilan birga ba'zi kimyoviy birikmalar bir-biriga yaqin bo'lmagan, turli oilaga mansub o'simliklar tarkibida ham bo'lishi mumkin.[4].

Qadim zamondan boshlab inson yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarni turli kasalliklarni davolashda foydalanib keladi. Hozirgi davrda dorivor o'simliklarni turi ko'payib, xalq tibbiyoti shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Ilmiy tabobatda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning aksariyati asrlar davomida xalq ishlatib kelgan o'simliklardan olingan. Xalq meditsinasida qo'llanib kelinadigan dorivor o'simliklarni ilmiy tabobatda ishlatib bo'lmaydi.[4].

Dorivor amarant o'simligi moyi tibbiyotda ko'p qo'llaniluvchi vositalar qatoriga kiradi, jumladan xolisterinni biosintez qilishda, organizmni radionukleid, og'ir metal tuzlaridan tozalashda, yuqumli kasalliklar, herpes, psoriaz, viltit, neyodermatit, ekzema, atopik dermatit, oshqozon-ichak yaralari, qandli diabet, jigar xastaligi, siydik-jinsiy organlarning shamollashi, aterosklerozanemiya, avitaminoz, gipertoniya, onkologik, yurak qon-tomir xastaliklaridagi muammolarni hal qilishda keng foydalaniladi.[5].

O'simlik urug'I qator kasalliklar-nafas olish kasalliklari(bronxit, laringit, plevrit, pnevmoniya),endokrin korreksiya(kamqonlik, semizlik, qandli diabet), suyak va qon – tomir kasalliklari(ostexondroz, artroz, artritlar), onkologik kasalliklar,uyqusizlik va boshqa jinsiy kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.[8].

O'simlik urug'I tarkibidagi skvalen moddasi saraton hujayralari rivojlanishini to'xtatish, tanani yoshartirish, immunitetni mustahkamlash, organlarning gormonal tizimining faoliyatini tiklash va shu bilan birga sog'lom hayotning davomiyligini oshirish [6,7] xususiyatlariga ega.

=====

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Insonni tabiatga, jumladan dorivor o'simliklar olamiga ta'siri qadim davrlardan boshlangan. Qadimgi kishilik jamiyatidagi formatsiyalarda tabiatdan foydalanish, rejali va tartibli bo'lgan. Bugungi kunda esa bu jarayon tartibsiz holga kelib qoldi. Agar insonlar faoliyati tartibsiz xolda rivojlansa, ya'ni ongli ravishda boshqarilmasa, u o'zidan so'ng faqat cho'lni qoldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.K.Xojimatov., H.Q.Haydarov., D.T.Xamrayeva., va boshq. O'zbekiston dorivor o'simliklar atlas. Samarqand. SamDU nashriyoti. 2021y. B-3-5.
2. D.Azimova., D.Ismoilova. Jigar va o't yo'llarikasalliklarini davolashda qo'llaniladigan dorivor o'simliklar. Journal of Natural Science. №1(6). 2022 y. B-131-132.
3. F.B.Joliyev., O.J.Meliqulov., S.S.Saydaxmadov. Dorivor o'simliklar ularning tabiatda va inson hayotidagi roli. "Экономика и социум" №10(89). 2021 y. B-112.
4. Ahmedov O'., Ergashev.A, Abzalov A. va boshqalar. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent. Tafakkur-bo'stoni. 2018. B-7.
5. Asqarov I.R., Jo'rayev A.M., Qirg'izov Sh.M. va boshqalar. Tibbiyotda ishlatiladigan ayrim o'simlik moddalarini kimyoviy asosida sinflash. Tabiiy birikmalardan qishloq xo'jaligida foydalanish istiqbollari.Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.Guliston.2018. 25-26-may.
6. Атамхаммедова. М. Р; Саидова А. Я. Основные правила питания при занятиях спортом// Новая наука история становления, современное состояние, перспективы развития.2020.C.265-267.
7. Nabiyeva S.B., Adxamjonova A.A. The chemical composition and properties of chicken meat//Innovative Technologica; Methodical Research Journal.2021.-Т. 2.-№10.C. 25-28.
8. <https://mushohada.uz>